



## TIKUV TRIKOTAJ KORXONALARIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI

Mamatraimov Islom Mamanazarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot

universiteti "Savdo ishi"

Kafedrasи o'qituvchisi

+998903700086

Mamatraimov20002@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15614536>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 05-June 2025 yil

Nashr qilindi: 07-June 2025 yil

### KEY WORDS

Global bozor, tendensiya, brend qiymati, modernizatsiya, Innovatsiya, trendlarni kuzatish.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada tikuv trikotaj sanoatida strategik menejmentning ahamiyati keng tahlil qilinadi. Strategik menejment – bu korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsiyalarni joriy etish jarayoni hisoblanadi. Tikuv trikotaj korxonalarini bozor talablariga moslashish, resurslarni samarali boshqarish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish hamda barqaror rivojlanishga erishish uchun strategik menejment tamoyillariga amal qilishlari zarur. Maqolada strategik menejmentning asosiy ustunliklari va uni samarali joriy etish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Tikuv-trikotaj sanoati yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish uchun samarali boshqaruv tizimini talab qilib, bozor talablariga moslashish zarurati bilan ajralib turadi. Bunday korxonalarning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga erishish uchun strategik menejment muhim ahamiyat kasb etadi. Strategik menejment korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada tikuv-trikotaj korxonalarida strategik menejmentni takomillashtirish usullari, muammolari va istiqbollari ko'rib chiqiladi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tikuv-trikotaj korxonalarida strategik menejmentni takomillashtirish bo'yicha turli ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar mavjud bo'lib, ular korxonalarni samarali boshqarish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Quyida ushbu mavzu bo'yicha Porter M. – "Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors" deb nomlanuvchi kitobida Portering beshta kuch modeli orqali sanoat tahlili yoritilgan. Tikuv-trikotaj korxonalarini uchun muhim jihat – raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, bozordagi mavqeni mustahkamlash, korxona strategiyasini moliyaviy va moliyaviy bo'lмаган omillari, tikuv-trikotaj sanoati uchun muhim jihat – biznes jarayonlarni yaxshilash, samaradorlikni oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha koplab nazariy ma'lumotlar berilgan.

**Nurmuxamedov R.** – "Yengil sanoat tarmoqlarida innovatsion menejment" Yengil sanoat, jumladan, tikuv-trikotaj sanoatida innovatsion menejment va ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ko'plab tavsiyalar, nazariy va amaliy manbalar mavjud

### Tadqiqot metodologiyasi

Korxonalarida strategik menejmentni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar aniq metodologik yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida empirik va nazariy usullar qo'llanilib, tahlil qilish, prognozlash va strategik rejalashtirish texnikalari ishlataladi. Ushbu metodologiya strategik menejmentning asosiy tamoyillarini tikuv-trikotaj sanoatiga mos ravishda tadbiqu etish imkonini beradi.

### Natija va muhokama

Tikuv-trikotaj korxonalarida strategik menejmentni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohada samarali boshqaruvi tizimini joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda. Strategiyani amalga oshirishga mas'ul bo'lgan guruhlarni moliyaviy ta'minotdan mahrum qilish, butun strategiyaning muvaffaqiyatli bajarilishiga xavf tug'diradi. Strategiyaning joriy etilishi byudjet bilan chambarchas bog'liq. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi strategiyani amalga oshirish jarayonini sekinlashtiradi. Aksincha, ortiqcha miqdordagi moliyalashtirish esa tashkilot resurslarining samarasiz sarflanishiga olib keladi va uning faoliyat ko'rsatkichlarini pasaytiradi. Strategiyani amalga oshiruvchilar byudjet tuzish, dasturlash hamda moliyaviy talablar masalalariga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Shu bilan birga, ular strategik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va muhim yo'nalishlarga resurslarni qayta taqsimlashga tayyor bo'lislari zarur. Strategiyaning o'zgarishi odatda resurslarni qayta taqsimlashni talab qiladi, yangi strategiyalar esa bu jarayonni yanada dolzarb qiladi. Ushbu bo'limda tadqiqot natijalari, muhokamalar va taklif etilgan strategik yechimlar bayon etiladi. O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, tikuv-trikotaj sanoati so'nggi yillarda o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda, biroq strategik boshqaruvi tizimi yetarlichha rivojlanmagan. Ko'plab korxonalar ishlab chiqarish jarayonida eskirgan texnologiyalardan foydalanadi, bu esa samaradorlikning pasayishiga sabab bo'ladi. Marketing strategiyalarining yetarli darajada rivojlanmagani eksport salohiyatini cheklab qo'ymoqda. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari yetarli emas.

SWOT-tahlil natijalari

Faktorlar	Tahlil
<b>Kuchli tomonlar</b>	Yuqori talab, yirik bozor segmenti, arzon ishchi kuchi, mahalliy xomashyo mavjudligi
<b>Zaif tomonlar</b>	Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, zamонавиев texnologiyalar yetishmov chiligi, innovatsion menejmentning sustligi
<b>Imkoniyatlar</b>	Eksportni kengaytirish, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilish, davlat dastaklari
<b>Tahdidlar</b>	Raqobatning ortishi, import mahsulotlarning bozorga kirishi, xomashyo narxlarining oshishi

Strategik boshqaruvni takomillashtirishning muhim jihatlari shuni ko'rsatadiki, strategik menejmentni takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim: Innovatsion menejment va texnologiyalarni modernizatsiya qilish, yangi texnologik liniyalar, raqamli tizimlarni joriy etish (ERP, CRM tizimlari), brend va marketing strategiyalarini kuchaytirish, mahsulot dizaynnini yangilab sifat menejmentini kuchaytirish va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish, qolaversa eksport strategiyasini kengaytirish, mahsulotlarni xalqaro bozorlarga moslashtirgan holda brend imijini yaxshilash va xorijiy hamkorlar bilan ishlash imkonini beradi. Inson kapitali va menejment salohiyatini oshirish esa kadrlarni doimiy o'qitib ularning malakasini oshirish yo'li bilan ularning salohiyatini oshirib boradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tikuv-trikotaj sanoatida strategik menejmentni takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, marketing strategiyalarini rivojlantirish va samarali resurs boshqaruvini amalga oshirish zarur. SWOT-tahlil va Porter modeli natijalariga asoslanib, korxonalar o'z strategik rejasini tuzishi va barqaror rivojlanishni ta'minlashi mumkin.

### Xulosa

**Tizimli yondashuv zarurati tikuv-trikotaj korxonalarining samarali ishlashi uchun strategik menejment tizimining barcha jihatlari yaxlit holda rivojlantirilishi lozim. SWOT-tahlil va Portering beshta kuch modeli asosida ishlab chiqilgan strategiyalar korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi. Innovatsion va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalar (ERP, CRM) joriy etilishi lozim. Zamonaviy "Lean Manufacturing" (Yalpi ishlab chiqarish) tizimini tatbiq etish orqali xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Marketing va eksport strategiyalarini takomillashtirish brendni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va onlayn savdo platformalaridan foydalanish korxonalarning global bozordagi ishtirokini mustahkamlaydi. Qadriyatlar zanjirini shakllantirishda yuqori samaradorlik va natijadorlikka erishish uchun har bir tashkilot va uning bo'limlari, o'z faoliyatlarini tarmoq yoki xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirishini nazorat qilishga asos yaratishlari kerak. Ish jarayonlarini yanada samaraliroq tashkil etish va eng yaxshi amaliy tajribalarni aniqlab, ularni joriy etish uchun mas'uliyat darajasining yuqoriligi strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi. Bu ayniqsa strategik ahamiyatga ega bo'lgan va katta moliyaviy mablag'larni talab qiladigan operatsiyalarga tegishli. Shu tarzda, ish sifati va xarajatlarni optimallashtirish orqali faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan rag'bat kuchaytirilishi mumkin. Xalqaro sifat standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarish eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Kadrlar salohiyatini oshirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish korxonalar rahbarlari va xodimlari zamonaviy strategik menejment tamoyillarini o'zlashtirishlari kerak. Muntazam ravishda menejment bo'yicha trening va seminarlar tashkil etish samaradorlikni oshiradi. Moliyaviy barqarorlik va davlat dastaklaridan foydalanish korxonalar moliyaviy menejmentni takomillashtirishi, sarmoyalarni jalb qilishi va davlat tomonidan beriladigan imtiyozlardan samarali foydalanishi lozim. Tikuv-trikotaj sanoatida samarali strategik boshqaruv tizimini shakllantirish uchun innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, bozor talablariga mos ravishda moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish va ilg'or boshqaruv texnikalarini qo'llash zarur. Ushbu choratadbirlar korxonalar barqaror rivojlanishiga va ularning xalqaro bozorda**

raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5177-sun qarori (2021). Yengil sanoatni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategiya.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (2023). Yengil sanoat bo'yicha statistik ma'lumotlar.
3. World Trade Organization (WTO) (2022). Global Textile & Apparel Market Report.
4. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) (2021). Sustainable Textile Industry Development Strategies.
5. Karimov, A., & Usmonov, O. (2020). Tikuv-trikotaj korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish. O'zbekiston iqtisodiyot jurnali. – Innovatsiyalar va strategik menejment bo'yicha mahalliy tadqiqot.
6. Tursunova, G. (2021). O'zbekiston yengil sanoatida strategik menejment muammolari va rivojlanish yo'llari. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti ilmiy jurnali.
7. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va Tashqi savdo vazirligi (2023). Yengil sanoat va eksport rivoji bo'yicha rasmiy hisobot.
8. Christopher, M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. Pearson. – Tikuv-trikotaj sanoatida ta'minot zanjiri boshqaruvi.
9. Slack, N., Brandon-Jones, A., & Johnston, R. (2016). Operations Management. Pearson. – Ishlab chiqarish jarayonlarini strategik boshqarish.
10. Ferdows, K. (2008). Managing Global Networks in the Apparel Industry. Journal of Operations Management. – Tikuv-trikotaj korxonalarining xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlari.
11. Kotler, P., & Keller, K. (2012). Marketing Management. Pearson. – Tikuv-trikotaj mahsulotlari marketing strategiyalari.